

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№8

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025
avgust



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,
102 sahifa, avgust, 2025-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Visualdsp++ platformasida raqamli signal protsessorlarini dasturlash texnologiyasi	12
Ibragimov Sanjarbek Salijanovich	
Tadbirkorlik tushunchasi: falsafiy-iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik tahlil.....	19
Rajabov Sirojiddin Mansurovich	
Xorijiy davlatlar sog'liqni saqlash tizimida investitsiya loyihalarini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish mexanizmi	26
Karabayev Sanjar Abdusamatovich	
Feasibility study and site optimization for small hydropower plants along the syr darya river in Uzbekistan.....	33
Karimov Mustafu Aminbayevich, Berdiyev Usmon Tolib o'g'li	
Agrar sohada risklarning o'zaro ta'sirchan tarzda namoyon bo'lish xususiyatlari.....	42
Baymirzaev Dilmurod Nematovich	
Parrandachilik mahsulotlari omilli tahlil qilishda indeks usulidan foydalanish.	47
Bobomuratov Imomkul Islamovich	
O'zbekiston telekommunikatsiya sohasida raqamlashtirish jarayonlarini samarali boshqarish: "O'zbektelekom" ak misolida.....	56
Islamov Javlon Rasulovich	
Tijorat banklari amaliyotida jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish yo'nalishlari.....	59
Rustamov Sunnatillo Rustamovich	
Tadbirkorlikning mamlakat yaimdagi ulushi va uning o'zgarish tamoyillari	66
Ibragimova Gulchexra Toxirovna	
Norasmiy bandlikning yashirin iqtisodiyot shakllanishi va dinamikasiga ta'sirining nazariy va amaliy jihatlari	72
Xasanov Jaxongir Jamshidovich, Sharifxo'jayev Shavkat Oqilovich	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlariga ajratilgan kreditlarning amaliy holati va dinamikasi	80
Irgasheva Nigora Akbarovna	
Туристская мобильность стран персидского залива как устойчивый и перспективный источник въездного туризма в Узбекистан	87
Додиев Феруз; Голышева Елена Вячеславовна	
O'zbekistonda sug'urta bozori holati va o'sish sur'ati	96
Bazarov Zakir Xonqulovich	

O'ZBEKISTONDA SUG'URTA BOZORI HOLATI VA O'SISH SUR'ATI

Bazarov Zakir Xonqulovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Sug'urta ishi” kafedrası dotsenti, PhD

G-mail: b.zakir@tsue.uz

Annotatsiya: O'zbekistonda sug'urta bozori so'nggi yillarda barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etmoqda. Bozor infratuzilmasining modernizatsiyasi, raqamli texnologiyalar joriy etilishi va xorijiy investitsiyalarni jalb etish sug'urta xizmatlari ko'lamini kengaytirmoqda. 2024 yilda umumiy yozilgan sug'urta mukofotlari hajmi 9,77 trillion so'mni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 21 % ga oshdi. 2025 yilning birinchi choragida esa ushbu ko'rsatkich 2,63 trillion so'mga yetib, 18,81 % o'sish qayd etildi. Ushbu dinamikaga hayot sug'urtasi, majburiy sug'urta turlari va korporativ mijozlar segmentining faollashuvi sabab bo'lmoqda. Shu bilan birga, aholining sug'urta madaniyatini oshirish, yangi mahsulotlarni joriy etish va risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bozorning keyingi rivojlanishi uchun asosiy omillar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Kalit so'zlar: sug'urta bozori, o'sish sur'ati, sug'urta mukofotlari, hayot sug'urtasi, majburiy sug'urta, raqamli texnologiyalar, investitsiya, sug'urta madaniyati.

Abstract: In recent years, Uzbekistan's insurance market has demonstrated steady growth rates. The modernization of market infrastructure, the introduction of digital technologies, and the attraction of foreign investment are expanding the scope of insurance services. In 2024, the total gross written premiums amounted to 9.77 trillion UZS, representing a 21% increase compared to the previous year. In the first quarter of 2025, this figure reached 2.63 trillion UZS, marking an 18.81% growth. This dynamic is driven by the activation of the life insurance segment, compulsory insurance types, and corporate clients. At the same time, improving the population's insurance awareness, introducing new products, and enhancing risk management mechanisms are emerging as key factors for the market's further development.

Keywords: insurance market, growth rate, insurance premiums, life insurance, compulsory insurance, digital technologies, investment, insurance awareness.

Аннотация: Страховой рынок Узбекистана в последние годы демонстрирует устойчивый рост. Модернизация рыночной инфраструктуры, внедрение цифровых технологий и привлечение иностранных инвестиций расширяют сферу предоставления страховых услуг. В 2024 году общий объем поступивших страховых премий составил 9,77 трлн сумов, увеличившись по сравнению с предыдущим годом на 21%. В первом квартале 2025 года этот показатель достиг 2,63 трлн сумов, увеличившись на 18,81%. Такая динамика обусловлена активизацией страхования жизни, обязательных видов страхования и сегмента корпоративных клиентов. При этом повышение страховой культуры населения, внедрение новых продуктов и совершенствование механизмов управления рисками становятся ключевыми факторами дальнейшего развития рынка.

Ключевые слова: страховой рынок, темпы роста, страховые премии, страхование жизни, обязательное страхование, цифровые технологии, инвестиции, страховая культура.

KIRISH.

Bozor iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi sifatida sug'urta sohasi har bir mamlakatda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, aholining ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizligini oshirish va investitsion muhitni yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasi ham bu yo'nalishda izchil islohotlar olib borayotgan davlatlardan biri bo'lib, so'nggi yillarda sug'urta tizimida sezilarli rivojlanish ko'zga tashlanmoqda. Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan sug'urta xizmatlari bozorini tartibga solish siyosati, ushbu sohani tez sur'atlar bilan rivojlantirish uchun zaruriy imkoniyat va infratuzilmani shakllantirib, barqaror o'sish dinamikasini ta'minlamoqda. Ushbu islohotlar zamonaviy, kompleks va raqobatbardosh sug'urta bozorini yaratishda muhim omillar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Hozirgi kunda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda yuz berayotgan amaliy o'zgarishlar, iqtisodiy tizimning muhim bo'g'inlaridan biri bo'lgan sug'urta faoliyatining ahamiyatini yanada oshirish uchun asosli imkoniyatlar yaratmoqda. Sug'urta sohasi — bozor iqtisodiyotining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, u davlatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotida muhim o'rin egallaydi. Milliy sug'urta sohasining rivojlanish yo'nalishlari va uning iqtisodiyotga ortib borayotgan ta'siri aniq ko'zga tashlanmoqda. Ayni paytda bu yo'nalish mamlakatimizda moliyaviy va iqtisodiy aloqalarning barqaror faoliyat yuritishi hamda izchil taraqqiy etishi uchun muhim strategik omillardan biri sanaladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir biznes subyekti o'z faoliyatida turli xavf-xatarlarga duch keladi, va aynan shu xatarlarni bartaraf etishda sug'urta xizmatlarining roli nihoyatda muhimdir.



ADABIYOTLAR TAHLILI

Xorijiy ilmiy manbalarda sug'urtasi bozori xizmatlarining iqtisodiy tizimdagi o'rni va ahamiyati bo'yicha qator yetuk olimlar tomonidan keng qamrovli tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, milliy iqtisodiyotda hayot sug'urtasi tizimining shakllanish jarayoni, uning moliyaviy barqarorlikka ta'siri, aholi turmush darajasini oshirish hamda jamg'arma mexanizmlarini kuchaytirishdagi ahamiyati yuzasidan T.Prokopeva, T.A. Fedorova, S.L.Efimov va E. G. Knyazevoy singari nufuzli xorijiy mutaxassislar tomonidan ilmiy-nazariy va amaliy asoslangan tahlillar olib borilgan.

O'zbekistonlik yetakchi iqtisodchi olimlar tomonidan sug'urta bozori mahsulotlarining nazariy asoslari, funksional jihatlari hamda ularni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari yuzasidan izchil ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, X.M. Shennayev, I.K. Ochilov, S.E. Shirinov, I.G'. Kenjayev, N.A. Mavrulova va I. Abduraxmonov kabi tajribali mutaxassislar tomonidan zamonaviy texnologiyalarni sug'urta tizimiga integratsiyalash, raqamli platformalar negizida xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, shuningdek, elektron sug'urta tizimlari orqali iste'molchilarga qulay sharoit yaratish kabi dolzarb yo'nalishlarda ilmiy-amaliy izlanishlar olib borilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'zbekiston sug'urta bozorining zamonaviy rivojlanish bosqichini chuqur o'rganish jarayonida kompleks ilmiy yondashuv qo'llanildi. Bunda mamlakatning sug'urta tizimiga oid statistik ma'lumotlar, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar majmuasi, ilg'or xorijiy amaliyot namunalari hamda mavjud makroiqtisodiy sharoitlar tizimli ravishda tahlil qilindi.

Tadqiqot doirasida 2020–2024-yillar oralig'ida hayot sug'urtasi xizmatlarining rivojlanish dinamikasini ifodalovchi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar chuqur o'rganildi. Jumladan, yig'ilgan sug'urta mukofotlari hajmining o'sish sur'atlari, amalga oshirilgan sug'urta to'lovlarning hajmi va ularning tuzilmasi, shuningdek, ushbu ko'rsatkichlarning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi (YalIM) nisbiy ulushi hisoblab chiqildi.

Mazkur tahlil natijasida hayot sug'urtasi segmentining o'sish tendensiyalari, moliyaviy barqarorlik darajasi va tizimning muvozanatlilik holati aniqlashtirildi. Bundan tashqari, sug'urta mukofotlari va to'lovlari o'rtasidagi nisbat, ularning iqtisodiy sikllarga nisbatan moslashuvchanligi hamda bozor kon'yunkturasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar ham baholandi.

Shuningdek, olingan natijalar xalqaro tajribalar bilan taqqoslanib, O'zbekiston hayot sug'urtasi bozorining rivojlanish istiqbollari, mavjud resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlari hamda barqaror o'sishni ta'minlash uchun zarur strategik yo'nalishlar bo'yicha ilmiy xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda O'zbekiston sug'urta bozorida infratuzilmaviy o'zgarishlar va institutsional rivojlanish jarayonlari jadal sur'atlar bilan kechmoqda. Jumladan, sug'urta faoliyatini amalga oshiruvchi professional ishtirokchilarning — ya'ni sug'urta kompaniyalari, brokerlar, aktuarlar va tahlilchilar sonining ortib borishi bozor mexanizmlarining takomillashuvida muhim rol o'ynamoqda. Bozor ishtirokchilarining soni jihatdan ko'payishi raqobat muhiti kuchayishiga olib kelib, sug'urta kompaniyalarini xizmat ko'rsatish sifati va iste'molchilarga bo'lgan yondashuvni zamonaviy talablarga mos tarzda takomillashtirishga majbur qilmoqda. Ayniqsa, kompaniyalar tomonidan taqdim etilayotgan sug'urta xizmatlari sifati xalqaro standartlarga moslashtirilmoqda va bu jarayonda ISO 9001:2015 kabi xalqaro sifat menejmenti tizimlarining joriy etilishi muhim o'rin tutmoqda. Ushbu tizimlar xizmat ko'rsatishda tizimlilik, shaffoflik, mijozga yo'naltirilganlik va uzluksiz takomillashuv prinsiplarini joriy etishga imkon yaratmoqda. Natijada, sug'urta kompaniyalari mijoz ehtiyojlarini chuqur o'rganish, xizmat ko'rsatish jarayonlarini standartlashtirish va sifatni nazorat qilish tizimlarini kuchaytirish orqali xizmatlar samaradorligini oshirmoqda. Bozordagi bunday o'zgarishlar nafaqat xizmat sifati, balki iste'molchilar ishonchi va bozorning raqobatbardoshlik darajasini oshirishga xizmat qilmoqda.

Yangi yondashuv asosida ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish ishlari amalga oshirilmoqda. Sug'urta mahsulotlarini yaratishda innovatsion marketing usullaridan foydalanib, aholining fikr va takliflarini inobatga olgan holda, sug'urta shartnomalari, polisleri, tarqatma materiallar va reklama mahsulotlari estetik va jozibador ko'rinishda tayyorlanmoqda. Shuningdek, aholiga xizmat ko'rsatish ofislari zamonaviy talablarga mos ravishda yangilanmoqda.

2022-yil aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi sifatida qayta tashkil etildi. Farmonga muvofiq, Agentlik kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish hamda ushbu sohada faoliyatni litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillari bo'yicha vakolatli etib belgilandi¹.

¹ <https://napp.uz/uz/pages/malumot-sayt-ma'lumotlari-asosida-tayyorlandi>.

2023-yil sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori bilan Agentlikka Iqtisodiyot va moliya vazirligining kapital bozorini, shu jumladan qimmatli qog'ozlar savdosining tashkilotchilari va Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi faoliyatini tartibga solish, korporativ boshqaruvni rivojlantirish, shuningdek, sug'urta tashkilotlari faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish bo'yicha vazifa, funktsiya va vakolatlari o'tkazildi. Agentlik ushbu sohalarida tartibga solish, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini amalga oshirish bo'yicha vakolatli organ etib belgilandi²

2024-yil 31-dekabr holatiga faoliyat yuritayotgan umumiy sug'urta tashkilotlari soni 42 taga yetdi, ulardan 34 tasi umumiy sug'urta tarmog'i, shundan 6 ta sug'urta tashkiloti litsenziyasi bekor qilingan va 8 tasi hayot sug'urtasi tarmog'ida faoliyat olib bormoqda, shundan 3 ta sug'urta tashkiloti litsenziyasi bekor qilingan.

1-jadval; O'zbekiston sug'urta bozorida amalga oshirilgan umumiy sug'urta sohasidagi sug'urta tashkilotlarida sug'urta to'lovlarining yig'ilgan sug'urta mukofotlariga nisbatan ulushi (mlrd.so'm)³

Yillar	Sug'urta mukofotlari (mlrd.so'm)	Sug'urta to'lovlari (mlrd.so'm)	Sug'urta to'lovlarining sug'urta mukofotlariga nisbatan ulushi (%da)	Oldingi yilga nisbatan o'sish (+) yoki kamayish (-) (%da)
2020 y.	2 213,7	737,6	33,3	-1,8
2021 y.	3 732,0	1 235,1	33,1	-0,2
2022 y.	6 231,7	2 596,9	41,7	8,6
2023 y.	8 059,7	2 022,1	25,1	-16,6
2024 y.	9 770,1	2 204,5	22,6	-2,5

1-jadval ma'lumotlarga asosida 2020–2024-yillar davomida O'zbekistonda sug'urta bozori barqaror rivojlanib, sug'urta mukofotlari hajmi yil sayin oshgan. 2020-yilda 2 213,7 mlrd so'mni tashkil etgan mukofotlar 2024 yilda 9 770,1 mlrd so'mga yetib, bu besh yil ichida to'rt martadan ortiq o'sishni ko'rsatmoqda. Bu, aholining sug'urtaga bo'lgan ishonchi ortib borayotgani va sug'urta xizmatlarining kengayib borayotganini anglatadi.

Shu bilan birga, sug'urta to'lovlari ham 2022 yilgacha o'sib borgan bo'lsa-da, keyingi yillarda kamaygan. Eng yuqori ko'rsatkich 2022 yilda (2 596,9 mlrd so'm) qayd etilgan bo'lsa, 2024 yilda bu ko'rsatkich 2 204,5 mlrd so'mga tushgan.

Eng e'tiborga molik jihat – sug'urta to'lovlarining sug'urta mukofotlariga nisbatan ulushi 2022-yilda 41,7% bilan eng yuqori darajada bo'lgan. Biroq keyingi ikki yil davomida bu ulush keskin kamayib, 2024-yilda 22,6% ga tushdi. Bu holat kompaniyalar tomonidan to'lovlarning qisqartirilgani yoki ehtimoliy zararlar kamaygani bilan izohlanishi mumkin.

Shuningdek, sug'urta to'lovlaridagi o'sish sur'ati 2022-yilda ijobiy bo'lgan bo'lsa (+8,6%), keyingi yillarda salbiy natijalar qayd etilgan (-16,6% va -2,5%), bu esa sug'urta kompaniyalari faoliyatida to'lov siyosati va ehtimoliy xavflar monitoringiga alohida e'tibor qaratilayotganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, sug'urta to'lovlarining mukofotlardagi ulushi O'zbekiston sug'urta bozorining moliyaviy sog'lomligi, foydalilik darajasi hamda risklarni boshqarish sifatini ko'rsatadigan muhim indikator hisoblanadi.

Sug'urta mukofoti – bu sug'urtalanuvchi tomonidan sug'urta kelishuvida ko'rsatilgan tartib va muddatlarga muvofiq sug'urtalovchiga to'lashi lozim bo'lgan to'lov bo'lib, bu orqali sug'urta xizmatidan foydalanadi. Mazkur to'lov sug'urta summasining hajmi, tarif stavkalari, sug'urta muddati hamda boshqa omillar bilan belgilanadi.

Umuman olganda, yig'ilgan sug'urta mukofotlari hajmining izchil oshib borishi — O'zbekiston sug'urta bozorining hajman kengayib, mazmunan chuqurlashayotganini ifodalaydi. Bu jarayon, bir tomondan, aholining sug'urtaga bo'lgan ishonchi ortib borayotganidan dalolat bersa, boshqa tomondan, bozor iqtisodiyoti sharoitida sug'urtaning xavflarni boshqarish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyati tobora kuchayib borayotganini ko'rsatadi. Sug'urta mukofotlari moliyaviy resurslar sifatida sug'urta kompaniyalarining faoliyatini moliyalashtirishda asosiy manba bo'lib, ularning kapital salohiyati, investitsion imkoniyatlari va risklarga bardoshlilikini oshiradi. Mazkur ko'rsatkich o'sib borayotgan bo'lsa, bu sug'urta sohasining iqtisodiy tizimdagi strategik ahamiyati ortib borayotganini, ya'ni u nafaqat ijtimoiy himoya vositasi, balki kapital jamg'aruvchi va moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi muhim institut sifatida shakllanayotganini anglatadi. Ayniqsa, sug'urta mukofotlari hajmining o'sishi makroiqtisodiy nuqtai nazardan qaralganda, davlatning moliyaviy sektori diversi-

² https://napp.uz/uz/pages/malumot_sayt_ma'lumotlari_asosida_tayyorlandi.

³ https://napp.uz/uz/pages/malumot_sayt_ma'lumotlari_asosida_tayyorlandi.



fikatsiyasi, moliyaviy inklyuzivlikning kengayishi va iqtisodiyotda xatarlarni taqsimlash mexanizmlarining takomillashib borayotganidan dalolat beradi. Shu bois, yig'ilgan mukofotlar miqdoridagi o'sish sug'urta sohasining iqtisodiy tizimda egallayotgan o'rnini mustahkamlab, uni uzoq muddatli barqaror taraqqiyot omili sifatida ko'rsatadi.

2-jadval: O'zbekiston sug'urta bozorida umumiy sug'urta sohasidagi sug'urta tashkilotlarida yig'ilgan sug'urta mukofotlari (mlrd.so'm)⁴

Sug'urta shakli bo'yicha turlari	Yillar					
	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.	2020 yilga nisbatan 2024 yillarda o'sishi
Majburiy sug'urta	338,0	476,3	491,3	632,4	664,7	196,6
Ixtiyoriy sug'urta	1 541,3	2 538,7	4 215,8	7 104,8	8 819,0	572,2
Jami:	1 879,3	3 015,0	4 707,0	7 737,2	9483,7	504,6

2-jadval ma'lumotlarga asosida 2020–2024-yillar oralig'ida O'zbekistonning umumiy sug'urta sohasida yig'ilgan sug'urta mukofotlari keskin o'sdi, bu esa sug'urta bozorining jadal rivojlanayotganini ko'rsatmoqda. 2020-yilda jami 1 879,3 mlrd so'm miqdorida mukofot yig'ilgan bo'lsa, 2024 yilga kelib bu raqam 9 483,7 mlrd so'mga yetgan, ya'ni 504,6% o'sish kuzatilgan.

Sug'urta shakllari bo'yicha:

Majburiy sug'urta mukofotlari 2020 yildagi 338 mlrd so'mdan 2024 yilda 664,7 mlrd so'mga yetib, 196,6% ga oshgan. Bu o'sish nisbatan barqaror, biroq umumiy mukofotlar hajmida kichik ulushni tashkil etadi.

Ixtiyoriy sug'urta mukofotlari esa yanada keskin o'sib, 2020-yildagi 1 541,3 mlrd so'mdan 2024-yilda 8 819,0 mlrd so'mga yetgan, bu esa 572,2% o'sish demakdir. Bu ko'rsatkich aholining va tadbirkorlarning sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabining oshganini anglatadi.

Majburiy sug'urta mukofotlari ham yildan-yilga ortib bormoqda, biroq o'sish sur'ati ixtiyoriy sug'urtaniki bilan solishtirganda pastroq. Bu davlat tomonidan belgilangan sug'urta turlari doirasida barqaror rivojlanish kuzatilayotganini ko'rsatadi.

Sug'urta mukofotlari hajmining ortishi sug'urta bozorida tizimli rivojlanishning yaqqol ifodasidir. Bu holat, avvalo, bozor ishtirokchilari sonining ko'payganligi, ya'ni yangi sug'urta kompaniyalarining tashkil etilishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, sug'urta xizmatlari ko'lamining kengayishi, raqobat muhitining kuchayishi va innovatsion mahsulotlarning bosqichma-bosqich joriy etilishi ushbu o'sishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Kompaniyalar tomonidan taklif etilayotgan xizmatlar sifati oshgani, mijozlarga xizmat ko'rsatish standartlarining xalqaro talablarga yaqinlashtirilgani va raqamli texnologiyalar asosida interaktiv xizmatlar rivojlanayotgani natijasida aholining sug'urtaga bo'lgan ishonchi mustahkamlanmoqda. Natijada, aholining sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabining ortishi sug'urta mukofotlari miqdorining o'sishida muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu jihatdan, sug'urta mukofotlarining dinamikasi nafaqat kompaniyalar faoliyatining moliyaviy ko'rsatkichlarini, balki bozorning institutsional rivojlanish darajasini ham aks ettiruvchi muhim indikator sifatida qaraladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR:

So'nggi yillarda O'zbekiston sug'urta bozorida infratuzilmaviy va institutsional rivojlanish jarayonlari sezilarli darajada jadallashdi. Bozor ishtirokchilari – sug'urta kompaniyalari, brokerlar, aktuarlar va boshqa professional mutaxassislar sonining ortishi raqobat muhitini kuchaytirib, xizmat sifati va iste'molchi manfaatlariga yo'naltirilgan yondashuvlarni shakllantirdi.

ISO 9001:2015 kabi xalqaro sifat menejmenti tizimlarining joriy etilishi sug'urta xizmatlarini tizimlashtirish, shaffoflashtirish va uzluksiz takomillashtirish imkonini bermoqda. Bu esa mijoz ehtiyojlarini chuqur o'rganish, xizmat jarayonlarini standartlashtirish va sifat nazoratini kuchaytirish orqali iste'molchi ishonchini oshirishga xizmat qilmoqda.

2020–2024-yillar oralig'ida sug'urta mukofotlari hajmi barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etdi. Xususan, umumiy sug'urta bozorida yig'ilgan mukofotlar besh yilda 504,6% ga o'sdi, bu esa aholi va biznes subyektlarining sug'urta xizmatlariga talabining ortayotganidan dalolat beradi.

Ixtiyoriy sug'urta mukofotlari majburiy sug'urtaga qaraganda tezroq o'sdi (572,2% ga), bu bozor mexanizmlarining kuchayib borayotganini va aholining sug'urta xizmatlaridan ongli foydalanish darajasi oshayotganini ko'rsatadi.

4 <https://napp.uz/uz/pages/malumot-sayt-ma'lumotlari-asosida-tayyorlandi>.



Sug'urta bozoridagi o'sish faqat moliyaviy ko'rsatkichlarda emas, balki institutsional barqarorlik, raqamli texnologiyalarni integratsiyalash, innovatsion mahsulotlarni joriy etish va xizmatlarni modernizatsiya qilish yo'nalishlarida ham namoyon bo'lmoqda.

Yuqorida keltirib o'tilgan ilmiy xulosalar asosida qo'yidagi takliflar shallantirildi:

Risklarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish – sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash maqsadida ehtimoliy xavflarni baholash va monitoring qilishning ilg'or uslublarini keng joriy etishlari lozim.

Ixtiyoriy sug'urta bozorini kengaytirish – yangi sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqish, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish va marketing strategiyalarini modernizatsiya qilish orqali talabni rag'batlantirish.

Sug'urta to'lovlari mexanizmini shaffoflashtirish – to'lov jarayonlarida tezkorlik va aniqlikni ta'minlash, shikoyatlar va da'volarni onlayn monitoring qilish tizimlarini rivojlantirish.

Ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish – sug'urta sohasida analitik va ilmiy izlanishlarni davlat va xususiy sektor hamkorligida qo'llab-quvvatlash, xalqaro tajriba almashish dasturlarini yo'lga qo'yish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Т.В. Прокопьева. Страхование:/ Учебное пособие. - Рубцовск, 2014,. С. 72.;
2. Федарова А.Т. ва бошқалар. Страхование (2-нашр). М.:Магистр, 2006. 251 б.;
3. С.Л.Ефимов ва бошқалар. Словарь страховщика-М.Экономика, 2000-322 б
4. Е. Г. Князевой. Страхование:/ Учебник. - Екатеринбург Издательство Уральского университета, 2019,. С. 63-34.
5. X.M.Shennayev, I.K.Ochilov, S.E.Shirinov, I.G'Kenjayevlar "Sug'urta ishi" O'quv qo'llanma. – Toshkent.: "Iqtisod-moliya 2014. 96-b.s

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100